

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830827>

**Azimov Farxod Abdixalimovich**

*FarDU harbiy ta’lim fakulteti uslubiy  
tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi podpolkovnik*

**Mirzayev To‘lanboy To‘lqinovich**

*Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”  
harbiy-akademik litseyi “Aniq fanlar” kafedrasi mudiri*

**Annotatsiya:** *Maqola Harbiy ta’lim yo‘nalishlarining o‘qitish didaktikasi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.*

**Аннотация:** *Статья посвящена вопросам дидактики военного образования, в которой исследуются проблемы, связанные с педагогическими условиями организации учебного процесса.*

**Abstract:** *The article is devoted to the issues of didactics of military education, in which the problems related to the pedagogical conditions of the organization of the educational process are studied.*

**Tayanch tushunchalar:** *ta’lim, tarbiya, didaktika, pedagog, muassasa, harbiy kadr, shijoatli mutaxassis.*

**Kirish.** Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar shaxsni yuqori darajadagi jismoniy, axloqiy, estetik va aqliy rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Bu esa mustaqil davlatimizning intellektual potensialini yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga aytish joizki, uchinchi ming yillik ta’limni insoniyat faoliyatining zarur keng ko‘lamli sohasi sifatida e’tirof etmoqda. XXI asrda ta’limni ijtimoiy rolini o‘shishi, kelajak jamiyatni yangi istiqbollarini aniqlanishi bilan bog‘liq. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta’lim tizimi hisoblanadi.

Respublikamizda ta’lim sohasidagi qabul qilingan me’yoriy hujjatlar talablarida «ta’lim-tarbiya jarayonini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va tamoyillarini ishlab chiqish, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlari darsliklarini yangi avlodi, o‘quv metodik majmualar yaratish» vazifasini hal qilish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.

Asosiy qism. Aynan ta’lim jarayonida jamiyat kelajagi yosh avlodni shaxsiy, insoniy, ma’naviy sifatlari shakllanadi. Ta’lim jarayonini qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o‘rganuvchi, tadqiq etuvchi pedagogikaning sohasi — didaktikadir.

Didaktika atamasi yunonchadan olingan bo'lib, «didaktikos», «didasko», «o'rgatuvchi», «o'rganuvchi» ma'nolarni anglatadi.

Didaktika ta'lim nazariyasi atamasi sifatida dastlab XVII asr boshlarida paydo bo'ldi. Didaktika atamasini pedagogikada birinchilardan bo'lib, nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635) «o'qitish san'ati» ma'nosida qo'llagan.

U o'zining ma'ruza kursini «didaktika», «o'qitish san'ati» (1613y.) deb nomlagan.

Harbiy pedagog shaxsiga, ya'ni harbiy rahbarga o'quvchilarda jangchi sifatlarini shakllantirishdek juda muhim va yuksak talablar qo'yiladiki, ularning mustahkamligi, armiya safida xizmat davomida tekshirilib boradi.

Harbiy tarbiya ishi uchun kerak bo'ladigan harbiy rahbar sifati bu uning o'quvchilarga talabchanligi. Talabchanlik o'quvchilarning erishgan tarbiya saviyasiga muvofiq bo'lishi, pedagogik odob bilan mos kelishi lozim.

Nihoyat, chaqiriqqa qadar harbiy tayyorgarlik rahbari shaxsining yana bir zaruriy sifati, pedagogik layoqat bo'lishi lozim.

Psixologik - pedagogik erudisiya o'qituvchi pedagogik mahoratining nazariy bazasi hisoblanadi va o'zi bilan psixologiya va pedagogika ilmiy asoslarining tizimini taqdim etadi. Psixologik-pedagogik erudisiya unga ongli ravishda, o'z pedagogik faoliyatiga ilmiy tomondan yondashishni, oldida turgan turli-tuman va qiyin o'quv tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ijodiy qarashni amalga oshirishda qo'l keladi.

Pedagogik takti o'qituvchi-ofitser tomonidan ta'lim oluvchi bilan muloqotning maqsadga muvofiq rivojlangan pedagogik shakllarini tadbiiq qilish tarbiyaviy ta'sir yo'llari, vositalari va usullarini tanlashda ehtiyotkorlik va chegarani bilishni ko'rsata olish qobiliyati sifatida aniqlash mumkin.

Bo'lajak harbiy rahbarlarga (maktablarda) pedagogik takt ahamiyati quyidagi sabablarga ko'ra yanada oshib borayapti.

Birinchidan, o'quvchilar o'zlarining ta'sirchanligi, yetarli darajada hissiy iroda mustahkamligi yo'qligiga ko'ra ularga qaratilgan o'zini tuta bilmalikka, qo'pollikka, manmanlikka, shaxsiy qadr-qimmatini haqoratlashiga, ayniqsa, sezgir bo'ladilar. Bunday ko'rinishlar to'g'ridan-to'g'ri nafaqat o'qituvchiga bo'lgan munosabatga ta'sir qiladi, balki ularning harbiy tayyorgarligiga, kelgusi xizmatiga bo'lgan munosabatiga ham o'tadi va shuning uchun ayniqsa bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, maktab o'quvchilari bir-biridan tarbiya va shaxsiy sifatlar saviyasi (moddiy ta'minlanishi, oilaviy sharoiti, jamoat ishi) bo'yicha farq qiladilar.

Bu tarbiya ta'siriy vositalarni tanlash va ularga tadbiiq qilishda individual yondashishni talab qiladi.

Uchinchidan, harbiy tayyorgarlik, tarbiyaviy ta'sirining oshirilgan zichligi o'quvchilarda psixologik qarama-qarshilikni keltirib chiqarmasligi uchun o'qituvchi o'rnini tarbiya subekti, o'quvchi o'rnini ob'ekt sifatida ko'rsatmaslik, ularning o'zaro munosabatini aybsiz lektor va omadsiz o'quvchi o'zaro munosabatini bog'langan, bir xil shaklda qurish kerak emas.



To'rtinchidan, o'quvchilar uchun shaxsni qayta qurish, odat, qarashlarini, o'zini tutishini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan harbiy tayyorgarlik talablari g'ayri-tabiiyligi ularda bu talablarga ijobiy, hissiy munosabatni shakllantirish, ongli ravishda ularni bajarishni muhim deb biladi. Shuning uchun ChQBT o'qituvchisi ayniqsa harbiy tayyorgarlikning boshlang'ich davrida bu talablarning cheklangan, taqiqlangan, majbur qiladigan tomoniga emas, balki maqsadga muvofiq, ijtimoiy kerakligi va ahamiyati, yoshlar uchun foydasi va jalb eta olishligiga e'tibor berishi lozim.

Bunday pedagogik mahorat komponentlari bo'lgan pedagogik, tafakkur, pedagogik qobiliyat, pedagogik kuzatishlarni bizlar amaliy mashg'ulotlarda ko'rib chiqishimiz va o'rganishimiz mumkin. Demak, Bizlar ishonch hosil qildikki, zamonaviy tarbiyachi, o'qituvchi, harbiy rahbar o'quvchi va jangchilar ta'lim-tarbiya masalalarida va harbiy pedagogika va psixologiya asoslari bo'yicha bilimsiz, doimiy ravishda o'z pedagogik mahoratini takomillashuviz zamon bilan birga yura olmaydi.

Qurolli Kuchlarning zamonaviy sharoitda asosiy vazifasi harbiy doktrinadan kelib chiqqan holda, yadro hamda oddiy urushning oldini olish hisoblanadi. Shu bilan birga, ular jangovar shayligini yetarli darajada saqlashi kerakki, hech kim bizning mustaqil yurtimizga to'satdan bostirib kira olmasin.

Ularning yuqori jangovar shayligining asosiysi, shaxsiy tarkibning o'z jangovar burchini bajarishdagi gumanitar jangovar, psixologik va jismoniy tayyorgarligi hisoblanadi. Shunga ko'ra harbiylar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ofiserlar tarkibining o'zni murakkablashmoqda. O'smirlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga tayyorlashda maktab harbiy rahbarlarining ishi muhim ahamiyatga kasb etadi. Hozir qo'shinlarga, ilmiy bilimlarsiz rahbarlik qilish va tarbiyalash aqlga to'g'ri kelmaydi. Harbiy rahbar harbiy nazariya yutuqlarini tatbiq qilsa, o'z ustida ishlasa, qilgan ishi muvaffaqiyatiga ishonishi mumkin.

Harbiy pedagogik jarayon qonuniyatlarini aniqlangan va o'rganib chiqilgan ko'rinishlarini turli sharoitlarda ochib bergan holda psixologiya va pedagogika o'quv tarbiya ishida tamoyil, uslub va tashkiliy shakllarni, hamda ulardan kelib chiqadigan qoidalar va amaliy tavsiyalarni shakllantiradi va asoslaydi.

Harbiy didaktika - jangchilarda yuqori jangovar shaylikda bo'lish, tinchlik davrda hamda urush sharoitlarida harbiy burchni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan yuqori axloqiy-siyosiy va jangovar sifatlar, jangovar mahoratni shakllantirish aqliy va jismoniy kuchlar, axloqiy-psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun jangchi va harbiy jamoalarga bo'lgan pedagogik maqsadga muvofiq ta'sirni o'rganadi. Qo'shinlarning jangovar va taktik tayyorgarligining pedagogik tomonlarini o'rganishda harbiy pedagogika o'quv-tarbiyaviy ishning prinsip, metod va tashkiliy formalarini, unga rahbarlik qilish tavsiyalari, qoidalari, usullarini asoslab beradi.

Shuning uchun, to'g'ri ta'kidlash kerakki, harbiy didaktika obekti qism va bo'linmalarining shaxsiy tarkibini xizmat va jangovar vazifalarni bajarish uchun tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi. Predmeti esa jangchilarning jangovar va siyosiy

tayyorgarlik jarayoni qonuniyatlari, uning tuzilish qismlari (tarbiya, o'rganish, ta'lim, rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, o'z-o'ziga ta'lim berish va o'z-o'zini tarbiyalash) alohida jangchi va harbiy jamoalarga tadbiriq qilishdir.

Jangovar va siyosiy tayyorgarlik jarayonining tuzilish qismi tarixan biz ko'rib chiqadigan harbiy tayyorgarlik tizimiga kiritilgan.

Tarbiya - bu jangchi ongi, tuyg'u va irodasiga maqsadga yo'naltirilgan tizimiy va tashkiliy ta'sir, ularda tarbiyaga oid sifatlarni shakllantirish maqsadidagi jarayondir.

O'rganish - jangchilarning xizmat va jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun unga kerak bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollanishdagi maqsadga yo'naltirilgan tizimiy jarayondir.

Ta'limni ikki taraflama tushunish mumkin:

1. Jangchi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarning muayyan tizimini o'zlashtirilishi jarayoni;

2. Nazariy va amaliy tayyorgarlik va intellektual kuchlarni rivojlantirish muayyan bir darajasida ular tomonidan o'zlashtirish natijasidir.

Rivojlanish - jangchining xarakteriga mos ravishda harbiy xizmatning bajarayotgan vazifalar va sharoitlarda aqliy va jismoniy faoliyatni funksional takomillashtirish maqsadiga yo'naltirilgan jarayondir.

Psixologik tayyorgarlik - jangchilarda psixologik sifatlarni shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan jarayondir. Uning borligi, shaxsiy tarkibning murakkab sharoitlardagi matonatli harakatlarini ta'minlaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash - jamoat va xizmat burchini muvaffaqiyatli bajarish uchun jangchiga kerakli bo'lgan sifatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadli ongli faoliyatdir.

Shuning uchun harbiy pedagogikada quyidagilar juda muhim:

- harbiy pedagogik jarayondagi joy va o'rnini ochib berish;

- ularda pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llarini, mazmuni va metodikasini ko'rsatib berish;

- obro' (avtoritet) o'rne va mohiyati, uni oshirish yo'llari va sharoitlarini ochib berish;

- shaxsiy tarkibning ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirish metodini, harbiy pedagogik tadqiqot va ularni qo'lga kiritish yo'llar metodikasini ishlab chiqish.

Harbiy didaktikaning muhim vazifalaridan biri harbiy jamoani o'rganish hisoblanadi va avvalam bor:

- siyosiy-axloqiy etuklikni, jangovar shaylikni va intizomni, ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirish;

- musobaqalarni tashkillashtirishning pedagogik sharti;

- jamoaning jiplashish metodikasi, unda nizomiy o'zaro munosabatlar, sog'lom jamoa fikrini shakllantirish.

Xulosa. Shunday qilib, Harbiy ta'lim yo'nalishi subektlarining didaktik o'quv faoliyatini samarali tashkillashtirish orqali ularda kelgusi kasbiy faoliyati tarkibida

kasbiy kompetensiyalar asosida ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarni anglash, Vatan himoyasi uchun shay turish, milliy g'oyaga sadoqat kabi fazilatlar rivojlantiriladi hamda ularning ijtimoiy kompetensiyalarida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi didaktik mazmunda, Harbiy ta'lim yo'nalishi subektlarini ta'lim texnologiyasi asosida o'quv jarayoniga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning bir komponenti sanaladi. Ularni rivojlantirish talabalarga kelgusida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Sh., Axatova D., Sobirov B., Sayitov S. Pedagogika (ekspres ma'lumotnoma) -T.: Fan, 2004, 264 b.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T., 2003, 68 b.
3. Roziqov O., Og'ayev S., Adizov B. Didaktika. - Toshkent: Fan, 1997, 255 b.
4. Qurbonov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqur-ashtirish. Ma'rifat. 2001. 20-iyun.